

Turoperatorlar tomonidan turistik oqim past bo‘lgan xorijiy mamlakatlardan olib kelingan har bir turist uchun rag‘batlantiruvchi subsidiyalar berish TARTIBI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom tanlov o‘tkazish va tanlov asosida tanlab olingan turoperatorlar tomonidan turistik oqim past bo‘lgan xorijiy mamlakatlardan O‘zbekiston Respublikasiga olib kelingan har bir turist uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti va Turizm qo‘mitasi huzuridagi budjetdan tashqari Turizmni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda — Jamg‘arma) mablag‘lari hisobidan teng ulushlarda (20 AQSH dollaridan 100 AQSH dollarigacha bo‘lgan ekvivalentda) rag‘batlantiruvchi subsidiyalar ajratish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi tushunchalar qo‘llaniladi:

subsidiya — tanlov asosida tanlab olingan turoperatorlarga turistik oqim past bo‘lgan xorijiy mamlakatlardan O‘zbekiston Respublikasiga olib kelingan har bir turist uchun ikki tomonlama imzolangan shartnomaga asosan ajratilgan mablag‘lar;

turoperator — turistik mahsulotlarni shakllantirish, ilgari surish va realizatsiya qilish yuzasidan turistik faoliyat bilan shug‘ullanadigan yuridik shaxs — O‘zbekiston Respublikasi rezidenti.

komissiya — ushbu Nizom va tanlovni tashkil qilishga oid hujjatlar asosida tanlovni amalga oshirish uchun Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vaziri buyrug‘iga muvofiq tuzilgan organ.

tanlov — ushbu Nizom talablari asosida komissiyasi tomonidan keyinchalik qo‘llab-quvvatlash maqsadida turoperatorlarni tanlab olish uchun o‘tkaziladigan jarayon.

turistik oqim past bo‘lgan xorijiy mamlakatlar — komissiya tomonidan har yil yakuni bilan tasdiqlanadigan mamlakatlar ro‘yxati.

har bir turist uchun rag‘batlantiruvchi subsidiya — turistik oqim past bo‘lgan xorijiy mamlakatlar kesimida har bir turist uchun ajratiladigan mablag‘ning komissiya tomonidan belgilangan miqdori;

3. Rag‘batlantiruvchi subsidiyalar tanlov asosida tanlab olingan turoperatorlarga ikki tomonlama imzolangan asosan ajratiladi.

4. Turoperatorlarga rag‘batlantiruvchi subsidiyalar 2024-yil 1-yanvardan boshlab 2026-yil 31-dekabrigacha ajratiladi.

5. Tanlov O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi (keyingi o‘rinlarda – Vazirlik) huzuridagi Turizm qo‘mitasi (keyingi o‘rinlarda – Qo‘mita) tomonidan tashkil etiladi va o‘tkaziladi.

2-bob. Tanlovning maqsadi

6. Turoperatorlarni qo‘llab quvvatlash maqsadida ularni O‘zbekiston Respublikasiga turistlarni jalb qilish harajatlarini bir qismini qoplash orqali rag‘batlantirishdan iborat.

3-bob. Tanlovni tashkil etish tartibi

7. Rag‘batlantiruvchi subsidiya ajratish uchun turoperatorlarni tanlab olish maqsadida Komissiya shakllantiriladi.

Komissiya tarkibi Vazirlik buyrug‘i bilan tasdiqlanadi.

Komissiyasiga ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vaziri rahbarlik qiladi.

8. Komissiya tarkibiga Vazirlik xodimlari bilan bir qatorda kelishuvga ko‘ra tegishli vazirlik va idoralar, nodavlat notijorat tashkilotlar hamda soha mutaxassislari kiritilishi mumkin.

9. Komissiya faoliyati ochiqlik, xolis baholash, talablarning umumiyli va tenglik tamoyillari, masalalarni kollegial muhokama qilish va qaror qabul qilish asosida olib boriladi.

10. Komissiya qarori komissiya tarkibining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etganda haqiqiy hisoblanadi. Komissiya qarori ko‘pchilik ovoz olish yo‘li qabul qilinadi. Ovozlar teng bo‘lgan taqdirda komissiya raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

Komissiyaning ishchi organi Qo‘mita hisoblanadi. Bunda, Ishchi organning tarkibi Qo‘mita raisi tomonidan shakllantiriladi va tasdiqlanadi.

Ishchi organ rahbari Komissiyaning mas‘ul kotibi hisoblanadi va u Komissiya tarkibiga kirmaydi hamda ovoz berish vakolatiga ega emas.

11. Komissiya faoliyati ochiqligini ta‘minlash maqsadida uning yig‘ilishlarida ommaviy axborot vositalari vakillari, tadbirkorlik subyektlari va boshqa davlat organlari vakillari ishtirok etishlari mumkin.

12. Komissiyasi quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshiradi:

turistik oqim past bo‘lgan xorijiy mamlakatlar ro‘yxatini shakllantiradi va tasdiqlaydi;

turistik oqim past bo‘lgan xorijiy mamlakatlar kesimida har bir turist uchun rag‘batlantiruvchi subsidiya miqdorini belgilaydi;

tushgan arizalarning ushbu Nizom talablariga muvofiqligini o'rganib chiqadi;

tanlovni o'tkazish davomida yuzaga keladigan nizolar va kelishmovchiliklarni ko'rib chiqadi hamda ularni tartibga soladi;

tanlov natijalari bo'yicha tanlab olingan turoperatorlar bilan shartnoma tuzish bo'yicha qaror qabul qiladi;

turoperatorlarga rag'batlantiruvchi subsidiya ajratish jarayonida yuzaga keladigan masalalarni ko'rib chiqadi va yechimi yuzasidan tegishli qarorlar qabul qiladi.

13. Komissiya ishchi organi:

komissiya a'zolarini zarur ma'lumotlar bilan ta'minlaydi;

rag'batlantiruvchi subsidiya olish uchun tanlovda qatnashish bo'yicha arizalar, loyihalar va boshqa tegishli materiallarni qabul qiladi;

loyihalari o'rganib chiqiladi va saralaydi;

komissiya yig'ilishi bayonnomalari va qarorlarini tayyorlaydi;

rag'batlantiruvchi subsidiya olish uchun tanlovda qatnashish bo'yicha ariza beruvchilarning yig'ilishlarda ishtirokini va taqdimotlarini tashkil qiladi.

4-bob. Tanlovni o'tkazish tartibi

14. Qo'mita, tanlov o'tkazilishi to'g'risida o'zining rasmiy veb-saytida, shuningdek, "Telegram", "Facebook" ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalarida va ommaviy axborot vositalarida e'lon beradi.

Qo'mita rag'batlantiruvchi subsidiyalar ajratish yuzasidan tanlovni har chorakda kamida bir marotaba o'tkazadi.

15. Tanlovda ishtirok etish uchun ariza beruvchi – turoperator *subsidiya@uzbektourism.uz* electron pochta manzili orqali quyidagi ma'lumotlarni Qo'mitaga yuboradi.

- a) O'zbekistonning turizm salohiyatini xorijda targ'ib qilish rejasi;
- b) turistik oqim past bo'lgan xorijiy mamlakatlardan turistlarni jalb qilish (oylar kesimida) rejalari;
- v) charter reyslarini tashkil qilish rejalari;
- g) jalb qilinishi rejalashtirilgan xorijiy turistlar uchun turpaketlarning mavjudligi.

16. Qog'oz shaklida to'ldirilgan va pochta orqali yuborilgan arizalar (shu jumladan, unga biriktirilgan boshqa hujjatlar) ro'yxatdan o'tkazilmaydi va tanlov doirasida ko'rib chiqilmaydi.

17. Ommaviy axborot vositalarida tanlov tashkil etish to'g'risidagi e'lon joylashtirilgandan keyin 1 oy davomida tashabbuskorlardan hujjatlar qabul qilinadi.

Belgilangan muddatdan kech taqdim etiladigan arizalar ko'rib chiqilmaydi.

18. Tashabbuskorlaridan hujjatlar qabul qilish muddati tugagan sanadan yigirma kun davomida tanlov ishtirokchilarining hujjatlari ko'rib chiqiladi va g'oliblar aniqlanadi.

19. Tanlovni ikki bosqichda tashkillashtiradi.

Birinchi bosqich turoperatorning taqdim etilgan loyihalari o'n kun muddatda o'rganib chiqiladi va saralanadi.

Ikkinchi bosqich birinchi bosqich yakunlari bo'yicha saralangan turoperatorlar komissiya huzurida o'z loyihalari taqdimotini o'tkazadi va taqdimot natijasi bo'yicha o'n kun muddatda baholanadi.

20. Ushbu Nizomga ilova bilan tasdiqlangan Ishchi organ tomonidan turoperator taqdim etilgan arizalar o'rganib chiqiladi hamda eng yaxshi loyihalar saralab olinadi va bu haqda tashabbuskorlarga ma'lum qilinib, taqdimot kuni belgilanadi.

Saralab olingan eng maqbul turoperator komissiyaga taqdim etiladi.

21. Saralangan turoperatorlar Komissiya huzurida o'z loyihalari taqdimotini o'tkazadi va taqdimot natijasi bo'yicha baholanadi.

Komissiya tomonidan tanlab olingan turoperatorlar to'g'risida qaror qabul qilinadi. Qaror bayonnoma asosida rasmiylashtiriladi.

Tanlov maqsadi va mezonlariga asosan komissiya tomonidan eng maqbul turoperator aniqlanmagan taqdirda qayta (yangidan) tanlov e'lon qilinadi.

Bunda, Nizomda belgilangan tartib asosida qayta (yangidan) tanlov tashkil etiladi va arizalar ko'rib chiqiladi.

22. Ariza beruvchi taqdim qilgan hujjatlardagi ma'lumotlarning ishonchliligi uchun javobgar hisoblanadi.

23. Ikkinchi bosqichga o'tmagan loyihalar rad etilgan taqdirda Ishchi organ loyiha rad etilganligi to'g'risida rad etish uchun asos bo'lgan sabablar aniq ko'rsatib o'tilgan holda (yozma ravishda) ariza beruvchini uch ish kunida xabardor qiladi.

Ariza beruvchi ko'rsatib o'tilgan kamchiliklar bartaraf etilganini tasdiqlovchi tegishli hujjatlarni ilova qilgan holda Qo'mitaga takroran ariza bilan keyingi e'lon qilinadigan tanlovga murojaat qilish huquqiga ega.

5-bob. Tanlab olish va baholash mezonlari

24. Ishchi organ va komissiya hujjatlarning ushbu Nizom talablariga muvofiqligini o'rganadi va quyidagi mezonlar asosida tanlab oladi va baholaydi:

turizm sohasida turoperator sifatidagi yetarli tajribaga egaligi;

turoperator tomonidan ilgari tashkil etilgan loyiha va dasturlarning samaradorligi;

turoperatorning O'zbekiston Respublikasiga sayyohlarni jalb qilishga qaratilgan ma'lum bir davlatdagi PR-kampaniyasi bo'yicha taqdim etilgan marketing strategiyasi va rejalari mavjudligi;

moliyaviy barqarorlik va turoperator faoliyatining shaffofligi;

turoperatorning vakillari tomonidan komissiya yig'ilishida amalga oshiriladigan loyiha bo'yicha taqdimoti.

6-bob. Tanlab olingan turoperatorlarga rag'batlantiruvchi subsidiya ajratish tartibi.

25. Tanlab olingan turoperatorlarga subsidiya ajratish bo'yicha Qo'mita va turoperator o'rtasida rag'batlantiruvchi subsidiya ajratish shartlari to'g'risida shartnoma tuziladi.

Komissiyaning ijobiy qarori turoperator bilan shartnoma tuzish uchun asos bo'ladi.

26. Rag'batlantiruvchi subsidiya shartnomaga asosan qoida tariqasida hisobot yilining birinchi olti oyi yakuni bilan yoki hisobot oyi yakuni bilan ajratiladi.

27. Tanlab olingan turoperatorlarga subsidiya ajratish uchun Qo'mita Iqtisodiyot va moliya vazirligiga ajratilayotgan mablag'lar hisob-kitobi aks ettirilgan buyurtmanomani taqdim etadi.

28. Iqtisodiyot va moliya vazirligi Qo'mita tomonidan taqdim etilgan buyurtmanomani uch ish kunida ko'rib chiqadi va subsidiya miqdorining Davlat byudjeti hisobidan to'lanadigan qismi bo'yicha tegishli mablag'larni Qo'mitaning shaxsiy g'azna hisob varaqlariga o'tkazadi.

Bunda tadbirkorlik subyektlariga subsidiya ajratish uchun Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan Qo‘mitaga belgilangan tartibda shaxsiy g‘azna hisob varaqlari ochiladi.

29. Mablag‘lar o‘tkazilgandan so‘ng ularni Qo‘mita uch ish kunida tadbirkorlik subyektlarining ularga xizmat ko‘rsatuvchi tijorat banklardagi hisob raqamlariga o‘tkazib beradi.

7-bob. Yakuniy qoidalar

30. Subsidiya olish uchun taqdim etilgan ma‘lumotlar va hujjatlarning to‘g‘riligiga tegishli tadbirkorlik subyektlari mas‘ul hisoblanadi.

31. Qo‘mita subsidiya berish ishlarini tashkil etish, muvofiqlashtirish va monitoring olib borish, ajratilgan mablag‘larning yetkazilishi yuzasidan mas‘ul hisoblanadi.

32. Subsidiya mablag‘larining tadbirkorlik subyektlariga o‘tkazilishi ustidan nazorat O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

33. Taqdim etilgan ma‘lumotlar soxtaligi aniqlangan hollarda Qo‘mita tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasiga murojaat qiladi. Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi xulosasi asosida moliyalashtirilgan mablaglarni belgilangan tartibda sud orqali qaytarish choralarini ko‘radi.

34. Tanlov natijalari va uning g‘oliblari haqidagi ma‘lumot bosma va elektron ommaviy axborot vositalarida hamda Vazirlik va Qo‘mita, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy veb-sahifalarida e‘lon qilinishiga yo‘l qo‘yiladi.

35. Turoperator tomonidan tanlovda ishtirok etish uchun taqdim etilgan ma‘lumotlar ariza beruvchiga qaytarilmaydi.

36. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

Turoperatorlar tomonidan turistik oqim past bo'lgan xorijiy mamlakatlardan olib kelingan har bir turist uchun rag'batlantiruvchi subsidiyalar berish tizimining vaqtinchalik tartibi to'g'risida
Nizomga
ILOVA

**Subsidiya ajratish uchun turoperatorlarni tanlab olish komissiyasi
ISHCHI ORGANI TARKIBI**

T/r	F.I.Sh.	Lavozimi
1.	U. Shadiev	Turizm qo'mitasi raisi, <i>Ishchi organ raisi</i>
2.	D. Abdusalomov	Turizm qo'mitasi raisining birinchi o'rinbosari, <i>Ishchi organ raisi o'rinbosari</i>
3.	<i>lavozim bo'yicha</i>	Turizm qo'mitasi raisining o'rinbosari
4.	<i>lavozim bo'yicha</i>	Turizm qo'mitasi Investitsiyalarni jalb qilish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash boshqarmasi boshlig'i, <i>Ishchi organ kotibi</i>
5.	Sh. Maxmudov	Turizm qo'mitasi Moliya-iqtisodiyot boshqarmasi boshlig'i
6.	A. Mirdjalilov	Marketing tadqiqotlari, milliy turizm mahsulotlarini targ'ib qilish bo'limi boshlig'i
7.	<i>lavozim bo'yicha</i>	Turizm qo'mitasi Yuridik bo'lim boshlig'i
8.	<i>lavozim bo'yicha</i>	Turizm qo'mitasi Turizm sohasida sertifikatlashtirish va standartlashtirish bo'limi boshlig'i

Izoh. Ishchi organ a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangi tayinlangan yoki tegishli vazifalarni bajarish yuklatilgan shaxslar kiritiladi.

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish
va iqlim o'zgarishi vazirligining
2023 yil _____ dekabrda
_____ - sonli buyrug'iga
2-ilova

**Subsidiya ajratish uchun turoperatorlarni tanlab olish bo'yicha
komissiya a'zolari
TARKIBI**

T/r	F.I.Sh.	Lavozimi
1.	A. Abduxakimov	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri, <i>komissiya raisi</i>
2.	U. Shadiev	Turizm qo'mitasi raisi, <i>komissiya raisi o'rinbosari</i>
3.	B. Aloyev	Tashqi ishlar vaziri o'rinbosari
4.	X. Teshabayev	Investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri o'rinbosari
5.	I. Norqulov	Iqtisodiyot va moliya vazirining birinchi o'rinbosari
6.	A. Akhatov	Bosh prokuratura sport, madaniyat, madaniy meros va turizm sohalaridagi qonunchilik ijrosi ustidan nazorat boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari
7.	A. Ikramov	Davlat statistika qo'mitasi raisining o'rinbosari
8.	D. Abdusalomov	Turizm qo'mitasi raisining birinchi o'rinbosari
9.	<i>lavozim bo'yicha</i>	Turizm qo'mitasi raisining o'rinbosari
10.	<i>lavozim bo'yicha</i>	Turizm qo'mitasi Investitsiyalarni jalb qilish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash boshqarmasi boshlig'i, <i>komissiya kotibi</i>
11.	Sh. Maxmudov	Turizm qo'mitasi Moliya-iqtisodiyot boshqarmasi boshlig'i
12.	A. Mirdjalilov	Marketing tadqiqotlari, milliy turizm mahsulotlarini targ'ib qilish bo'limi boshlig'i
13.	<i>lavozim bo'yicha</i>	Turizm qo'mitasi Yuridik bo'lim boshlig'i
14.	<i>lavozim bo'yicha</i>	Turizm qo'mitasi Turizm sohasida sertifikatlashtirish va standartlashtirish bo'limi boshlig'i
15.	G. Israilova	O'zbekiston xususiy sayyohlik tashkilotlari uyushmasi raisi
16.	Yumi Mizumoro	JICA eksperti (<i>qarorlarga ta'sir qilish huquqisiz</i>)

17.	Maya Lomidze	Rossiya Turoperatorlari Assotsiatsiyasi rahbari (<i>qarorlarga ta'sir qilish huquqisiz</i>)
18.	Roula Djoni	“Enera group” direktori (<i>qarorlarga ta'sir qilish huquqisiz</i>)
19.	Dalia Altuntepe	“Numa GmbH” direktori (<i>qarorlarga ta'sir qilish huquqisiz</i>)

Izoh: Komissiya tarkibidagi mas'ul shaxslar boshqa lavozimga o'tganda yoki vazirlik bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilingan taqdirda ularning o'rniga tayinlangan shaxslar arizani ko'rib chiqish uchun mas'ul ekanliklari belgilab qo'yilsin.